



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2024 yil “6” sentabr

01-20503 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
1-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«26» avgust 2024-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A. Boymuradov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
v.v.b rektori, professor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. 2023-2024 o‘quv yili hisoboti va yangi o‘quv yilida ustuvor vazifalar.

Ma‘ruzachi - Akademiya rektori v.v.b Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich.

2. Dissertasiya, monografiya mavzulari va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi–Ilmiy tadqiqotlar, innovasiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

3. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul qilindi.

QAROR QILADI:

1. Kun tartibining asosiy masalasi bo'yicha "2023-2024 o'quv yili hisoboti va yangi o'quv yilida ustuvor vazifalar" mavzusi bo'yicha Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o'rinlarda – Akademiya) rektori v.v.b Boymuradov Shuxrat Abdujalilovichning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

1.1. Akademiyaning barcha kurslarida o'quv jarayonini sifatli tashkil etish va to'liq raqamlashtirish maqsadida to'liq HEMIS tizimiga o'tkazilishi, o'quv jarayonida talabalarning o'zlashtirishi va davomatini to'liq HEMIS platformasida qayd etib borilishi, qayta topshirish, YaN natijalarini to'g'ridan-to'g'ri HEMIS platformasiga kiritilishi, shuningdek, elektron jurnal va qaydnomalarni o'z vaqtida to'ldirib yuritilishi, mavjud Moodle platformasi bilan integratsiya qilinishi, ta'lim resurslarini to'liq kiritilishi va raqamli imzo orqali barcha tizimlardan unumli foydalanilishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi (RTTM) boshlig'i A.K.Musaxonov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentyabr.

1.2. Axborot resurs markazidagi (ARM) o'quv adabiyotlari fondini taftish qilinishi, malakali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda mavjud bo'lmagan va yetishmaydigan adabiyotlarni yaratilishi va xarid qilinishi choralari ko'rib chiqilsin. Shuningdek, kafedralar va mutaxassisliklar kesimida adabiyot va ko'rgazmali o'quv qurollar bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida ma'lumot berilsin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, ARM direktori G.V.Kuzmina, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentyabr.

1.3. Mutaxassislik fanlari bo'yicha testlar bazasini yangilanishi, amaliy ko'nikmalar ro'yxatini qaytadan shakllantirilishi hamda bajarilishining sifatini oshirilishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentyabr.

1.4. Yangi ochilgan "Biotibbiyot muhandisligi", "Pediatriya ishi", "Stomatologiya", "Farmatsiya", "Oliy hamshiralik ishi" va "Kimyo" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun texnoparklarni tashkil qilinishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari buyicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari va taalluqli kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.5. Yosh pedagog-kadrlarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Yosh pedagoglar maktabini tashkil etilishi va chet eldagi nufuzli OTMlarda stajirovkasini tashkil etilishi yanada kuchaytirilishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Halqaro aloqalar bo'yicha prorektor J.J.Israilov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.6. Kafedra xodimlarining chet tilini bilish bo'yicha bilimlarini oshirilishi, C1 va B2 darajadagi xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushini oshirish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o'quv yili davomida.

1.7. Akademiya va kafedralarning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida ishga qabul qilingan yosh kadrlarning mavzularini o'z vaqtida tasdiqlanishi va bajarilishi bo'yicha monitoringi olib borilsin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

1.8. Mahalliy va Xalqaro «Scopus», «Web of Science» ma'lumotlar bazasidagi va boshqa yuqori impakt faktorga ega jurnallarda nashrlar sonini oshirilishi ta'minlansin, shuningdek, ushbu bazalardagi mualliflarning h-index ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlab o'tilsin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshligi Z.A.Muminova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.9. Barcha kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirishda va amalga oshirishda Akademiyaning Biotibbiyot texnologiyalar markazi (BTM) bilan shartnomalar tuzilishi, uning imkoniyatidan keng foydalanilishi ta'minlansin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, BTM rahbari Z.Ch.Kurbanova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.10. Akademiyada barcha ilmiy-tadqiqot ishlari yuqori darajada bajarilishini ta'minlash maqsadida doktorant va mustaqil izlanuvchilarni Biotibbiyot Markaziga biriktirilishi hamda ilmiy izlanishlariga oid zarur reaktivlar va reagentlar ro'yxati shakllantirilishi ta'minlansin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, BTM rahbari Z.Ch.Kurbanova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.11. Kafedra xodimlarining mahalliy va xorijiy ilmiy grantlarda faol ishtirok etishlari hamda xo'jalik shartnomalarni jalb etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

Z.A.Muminova, Ilmiy-tadqiqot sektori boshlig'i D.A.Akramov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.12. Akademiyaning yosh xodimlari, shuningdek, iqtidorli talabalar va magistr-talabalar Start-app loyihalariga jalb etilishi bo'yicha ishlar jadallashtirilsin (tushuntirish, tayyorlash, ish yuritish va boshqa ishlarni o'rgatish).

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.13. Akademiya xodimlarning chop etishga taklif etilayotgan ilmiy maqolalarining sifatini oshirish maqsadida malakali professor-o'qituvchilar tarkibidagi xalqaro tahririyat a'zolari tuzilishi va ikki tomonlama sharh o'tkazilishini (rus: двойное слепое рецензирование) yo'lga qo'yilsin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.14. Barcha kafedralarda iqtidorli talabalarni saralash, ularni ilmiy – tadqiqot izlanishlarga keng jalb etish bo'yicha ishlar faollashtirilsin.

Ma'sul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.15. 2024/2025-o'quv yili davomida Akademiyaning kafedralarida halqaro faoliyatni takomillashtirish maqsadida kuyidagi vazifalar amalga oshirilishi va jadallashtirilishi ta'minlansin:

- xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda uzoq muddatli strategik hamkorlik aloqalari o'rnatilishi va mustahkamlanishi;

- chet ellik professor-o'qituvchilarning Akademiya o'quv jarayoniga jalb qilishlar sonini oshirilishi;

- chet-ellik professor-o'qituvchilarni shartnoma asosida ishga qabul qilinishi;

- yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlarning chet tilini bilish bo'yicha sertifikatini talab qilinishi;

- o'quv jarayoniga xorijlik mutaxassislarni doimiy ravishda hamda masofaviy formatda) jalb qilinishi;

- xorijiy hamkorlar bilan birgalikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarni tashkil etilishi;

- chet-ellik hamkorlar bilan birgalikda qo'shma maqolalar chop etilishi va dissertatsiya ishlariga xorijlik mutaxassisni ilmiy rahbarlikga jalb etilishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, Halqaro bo'lim boshlig'i M.M.Jafarov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.16. Akademiyada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, ilmiy yangiliklar bo'yicha Ilmiy-tadqiqotlar axborot tizimi yaratilishi ta'minlansin.

Ma'sul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar buyicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o'quv yili davomida.

1.17. Barcha kafedralarning davolash ishlarini takomillashtirish maqsadida tegishli klinik bazalari taftish qilinsin, uzoq joylashgan va talabalar uchun sharoiti yaxshi bo'lmagan bazalar samaradorligi ko'rib chiqilsin hamda Akademiyaga yangi birlashtirilgan klinik bazalar imkoniyatidan keng foydalanishi ta'minlansin.

Ma'sul: Davolash ishlari bo'yicha prorektor M.Sh.Karimov, fakultet dekanlari va kafedra mudirlari.

Muddat: 2024-yil sentyabr.

2. Dissertasiya, monografiya mavzulari va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbiq'ini tasdiqlash bo'yicha Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar bilan tanishtirdi va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

3. Turli masalalar bo'yicha O'quv ishlari buyicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A.Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i R.I.To'raqulov va Reja-moliya bo'limi boshlig'i O.U.Goipov so'zga chiqdilar.

3.1. Toshkent tibbiyot 2024/2025 o'quv yili uchun Akademiyaning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 1-kurslarining o'quv va ishchi o'quv rejalari, fan (o'quv) dasturlari, sillabuslari tasdiqlansin va o'quv jarayoniga tadbiiq etilsin.

3.2. Toshkent tibbiyot akademiyasining xalqaro e'tirofi keskin oshganligi, uning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda Akademiyada o'qish istagini bildirgan xorijiy fuqarolarning soni ortganligi munosabati bilan, yangi 2024/2025-o'quv yili Xalqaro fakultet qabuli uchun belgilangan kvota 600 nafargacha etib belgilansin.

3.3. Toshkent tibbiyot akademiyasining IL-AL-662205483-sonli "Nogiron bolalar uchun aravacha" nomli ilmiy- amaliy grant loyihasi doirasida 40 dona aravacha ishlab chiqish ko'zda tutilganligi, lekin zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borishi, imkoniyati cheklangan bolalar ehtiyojini yanada ijobiy qondirish maqsadida kelishilgan (Shartnoma) hujjatlarida ko'rsatilgan mablag' (summasi o'zgarishsiz qolishi) hisobiga so'ngi texnologiyalar bilan jihozlangan aravachalar soni 40 tadan 21 taga (1 dona Eksoroller, 20 dona vertikalizator) ishlab chiqarilishini maqsadga muvofiq deb ko'rilsin va (Grant rahbari – (PhD) dotsent I.R. Urazaliyeva) tasdiqlansin.

3.4. Toshkent tibbiyot akademiyasining FM-20230414707-sonli “Qon aylanish kasalliklari (Uyqu va yonbosh arteriyalar aterosklerozi) kliniko-biokimyoviy va patogenetik muammolari, nevrologik, kognitiv, suyak bo‘g‘imlari asoratlari, davolash” nomli fundamental grant loyihasining smeta xarajatlariga loyihaning boshlanishida xarid qilish uchun bir qator tibbiyot jihozlari rejalashtirilgan bo‘lib, hozirgi kunga kelib, klinik izlanishlarda bemorlarda kengaytirilgan va zamonaviy tekshirishlar olib borish zaruriyati tug‘ilganligi, shuningdek loyiha doirasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida samarali amalga oshirish va ko‘zlangan maqsadlarga erishish maqsadida loyiha doirasida qo‘shimcha o‘quv-laboratoriya jihozlari xarid qilishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu borada Innovatsion rivojlanish agentligining tegishli javob xati olindi va mazkur xatda rejalashtirilgan mablag‘larning iqtisod qilingan qismidan loyihaga doir bo‘lgan qo‘shimcha jihozlar xaridi uchun o‘zgartirishga akademiya Ilmiy kengashining qaroriga muvofiq amalga oshirish mumkinligi belgilangan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 2024-yil iyul-avgust oylarida jami 850,0 mln. so‘m qiymatida o‘quv-laboratoriya jihozlari xarid qilinishidan iqtisod qilinadigan mablag‘lar hisobidan loyiha doirasida tadqiqotda ishtirok etayotgan bemorlarda bosh miya insultini rivojlantirish jarayonida yurakkoronar tomirlardagi o‘zgarishlarni bog‘liqligini baholash maqsadida sutkalik Xolter-EKG monitorlash apparati (*rus. Система мониторинга ЭКГ*) 2 dona va Noinvaziv sutkalik qon bosimini monitorlash apparati (*rus. Неинвазивное суточное мониторирование артериального давления (СМАД)*) 2 dona xarid qilinishi, shuningdek mazkur jihozlarni xarid qilish uchun ajratilgan mablag‘larni samarali sarf-xarajatini ta‘minlash uchun Immunoxemilyuminestsent analizator (IXLA) o‘rniga aksariyat tadqiqot tekshiruvlariga to‘g‘ri keladigan “ochiq tizimli”, yani barcha ilmiy reaktivlariga mos keladigan Immunoferment analizatori (IFA) hamda tadqiqotlarni o‘tkazish uchun unga tegishli boshqa analizator va butlovchi qismlarning xarid qilinishi (Grant rahbari – t.f.d. professor M.M.Asadullayev muddat 2023-2026 yy.) tasdiqlansin.

3.5. Toshkent tibbiyot akademiyasining IL-5221091515-sonli “Post-Kovid 19 bilan og‘rigan komorbid patologiyali bemorlarda reabilitatsiya texnologiyasini ishlab chiqish” nomli ilmiy- amaliy grant loyihasiga Loyiha smetasining 1-yil xarajatlariga Italiyaning Padua universitetiga safar xarajatlari rejalashtirilgan edi. Biroq, Padua universitetidagi shart-sharoitlar sababli 2023-yil oktyabr oyida rejalashtirilgan safar 2024-yil sentyabr-oktyabr oylariga ko‘chirilishiga qaror qilindi. Shuningdek, grant loyihasi uchun ajratilgan mablag‘larni belgilangan vazifalar uchun to‘g‘ri va samarali sarflash maqsadida safar xarajatlari uchun rejalashtirilgan mablag‘lar hisobidan loyiha doirasida 2024-yilda ko‘zda tutilgan jihozlar xarid qilindi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, loyiha doirasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida samarali amalga oshirish va ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun loyiha doirasida rejalashtirilgan safar xarajatlarini 2024-yil sentyabr-oktyabr oylarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb ko‘rilsin hamda (Grant rahbari – t.f.d. dotsent G.N.Sobirova, muddat 2023-2025 yy.) tasdiqlansin.

3.6. 2024/25-o‘quv yilidan boshlab TTA Talabalar turar joylarida o‘rin joylar ijarasi quyidagi tartibda:

3-TTJ (mehmonxona) uchun bir oylik ijara summasi 900 000 so‘m, bir kunlik ijara summasi 30 000 so‘m;

barcha qolgan TTJlar uchun 300 000 so‘m, bir kunlik ijara summasi 10 000 so‘m etib belgilansin.

Xorijiy talabalar uchun TTA Talabalar turar joylarida ajratiladigan o‘rin joylar ijarasi to‘lovi ushbu belgilangan miqdorlardan kam bo‘lmagan qiymatlarda o‘zaro kelishuv asosida amalga oshirilishi inobatga olinsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, barcha fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i M.A.Xasanova, TTJ direksiyasi direktori S.O‘.Ruzmetov.

Muddat: 2024-yil sentabr oyidan boshlab.

3.7.Toshkent tibbiyot akademiyasi Dermatovenerologiya va kosmetologiya yo‘nalishi 2-kurs magistr talabasi Parpiev Bekzod Rustamjon o‘g‘li Xindiston Respublikasi Gujorat shtatidagi “Sankalchand Patel University (SPU)” 1-oylik 08.06.2024 yildan 06.07.2024-yilgacha bo‘lgan qisqa muddatli stajirovkani amalga oshirib kelganligi to‘g‘risidagi hisoboti tasdiqlansin.

3.8.Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligi vakillari tomonidan kompleks tekshiruv, monitoring yakuniga ko‘ra o‘tkazilgan yig‘ilish talabiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarorida (<https://lex.uz/docs/-3213410>) 2-ilova bilan tasdiqlangan NIZOM talablariga (1-bob, 8-band) muvofiq belgilangan talab bajarilishi ta’kidlandi. Ya’ni, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vazirligi va Oliy attestatsiya komissiyasi vakillarining talabi ilmiy rahbarlik uchun belgilangan cheklovga rioya etish, talabni bajarmagan Ilmiy rahbarga nisbatan, cheklovdan o‘tish holatida, chora ko‘rish belgilanishi haqida ogohlantirilganligi ma’lum qilinadi. Shuni e’tiborga olgan holda Akademiyada barcha ilmiy izlanuvchilar (doktorant va mustaqil izlanuvchi) attestatsiyada sababsiz qatnashmagan va hujjatlar talab darajasida yuritilmaganlar, ularning ilmiy rahbarlariga nisbatan chora ko‘rish belgilanishi haqida ogohlantirilsinlar.

3.9. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 24-oktabrdagi 616-son qaroriga muvofiq ta’ sis etilgan “Oliy ta’lim a’lochisi” hamda “O‘rta maxsus va professional ta’lim a’lochisi” ko‘krak nishonlari bilan “1-oktabr - Ustoz va murabbiylar kuni” bayrami munosabati bilan taqdirlashga nomzodlar berish to‘g‘risida”gi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2024-yil 16-avgustdagi 02/24-2388-sonli xatiga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda TTA Akademik litseyida faoliyat olib borayotgan quyidagi rahbar xodimlar va professor-o‘qituvchilarning nomzodi (ma’lumotlari) yuborilsin:

1.Boymuratov Shuhrat Abdujalilovich – O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, rektor v.v.b.;

2.Bobomuratov Turdiqul Akramovich – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor;

3.Bilalov Erkin Nozimovich – Oftalmologiya kafedrasi mudiri, professor;

4. Xakimov Murod Shavkatovich – 1-son fakultet va gospital jarrohlik kafedrasi mudiri;

5.Raximbayeva Gulnora Sattarovna – Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasini mudiri;

6.Agzamova Gulnora Sunnatovna – 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrasini dotsenti va fakultet ilmiy kotibi;

7.Tursunov Djaxangir Xusanovich - Tibbiy va biologik kimyo kafedrasini mudiri va xalqaro fakultet dekani;

8.Allayeva Munira Jo‘raqulovna - Farmokologiya kafedrasini mudiri;

9.Ruzmetov Suxrob O‘rinboy o‘g‘li - Talabalar turar joyi direksiyasi direktori;

10.Utayev G‘ayrat G‘aybullayevich - Ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o‘qituvchisi;

11.Malikov Zaxid Vasiqovich - Akademik litsey biologiya fani o‘qituvchisi, biologiya fanlari nomzodi.

Mas‘ul: Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Xodimlar bo‘limi boshlig‘i N.A.Ismatullaeva.

Muddat:2024-yil 6-sentabr.

3.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari uchun kuyidagi nomzodlar tasdiqlansin:

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun ***Ibn Sino nomli davlat stipendiyasiga nomzodlar:***

1.Boluns Yevgeniya Andronikovna, 2-son davolash ishi fakulteti 604-guruh talabasi;

2.A‘lamova(Abrorova) Noilaxon A‘zamovna, 2-son davolash fakulteti 605-guruh talabasi;

3.Kim Vladlen Maksimovich, 2-son davolash fakulteti 606-guruh talabasi.

Bakalavriat bosqichi talabalari uchun ***Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga nomzodlar:***

1. Qiyomova Marjona Murodxo‘ja qizi, Biotibbiyot muhandisligi 401 - guruh talabasi;

2. Jumanazarova Mohinur Jumanazar qizi (*Ibn Sino nomli davlat stipendiyati 2023-2024 o‘/y*), 2-son davolash fakulteti 601-guruh talabasi.

Magistratura talabalari uchun ***Prezident davlat stipendiyasiga nomzod*** (Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi):

1. Yusupaliyeva Dilnora Baxodir qizi, Kardiologiya yo‘nalishi magistr talabasi 2-bosqich.

Magistratura talabalari uchun ***Prezident davlat stipendiyasiga nomzod*** (Atrof-muhit yo‘nalishi):

1. Fayziboyev Sardor Sarvar o‘g‘li, Atrof-muhit va inson salomatligi magistratura 1-kurs talabasi.

O‘zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasiga nomzod:

1. Zayniddinova Diyora, 1-son Davolash fakulteti 6-kurs talabasi.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 552405
Sana: 06.09.2024